

FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTI BOSQICHLARI; SHARQ FALSAFASI.

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
Instituti Pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Xolmo'minova Sevinch Alisher qizi.
Qurbanboyeva Lobar Oybek qizi.
Yo'ldosheva Aziza Xo'jamurod qizi.*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari – sharq falsafasi, falsafaning tarixiy rivojlanishidagi bosqichlar, falsafaning mahalliy – milliy ko'rinishlari, har bir davr falsafasi o'ziga tegishli jihatlari. Turli tarixiy davrlarda falsafiy dunyoqarashning mohiyati, fundamental masalalari, tushunchalarini va prinsiplari saqlanib qolgan xolda, falsafiy fikr rivojidagi vorisiylik mavjud bo'lgani xolda, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq ravishda falsafaning predmeti , vazifalari xal etadigan muammolari haqida batafsil yoritib berilgan .

Kalit so'zlar: Sharq falsafasi, panteizm, ratsionalizm, gumanizm, jadidchilik, ma'rifatparvarlik falsafasi.

Kirish. Tarix va falsafa mantiqiy ravishda bir – birini taqozo etadigan , kerak bo'sa , to'ldiradigan taraqqi-yot jarayonlari haqida yaxlit tasavvur beradigan fanlardir . ‘’Albatta, falsafa zamon va makon bilan bog’-liq murakkab fan ekanini tushunamiz . Shu bois haqiqatni toppish uchun qarama – qarshi fikirlarni o'rta-ga tashlaylik , muhokama qilaylik . Talabalar, ziyoli yoshlarimizning o'zi kerakli xulosani chiqarib olsin.

SH.M.Mirziyoyev .

Sharq falsafasi atamasi bilan Osiyo qit'asida paydo bo'lgan falsafiy oqimlar, qarashlar majmuyi . Sharq falsafasiga hind, xitoy, fors, yapon, koreys hamda O'rta Osiyo falsafasi kiradi. Bu ro'yxatga ba'zan Bobil va Arab falsafasi ham kiritiladi, biroq bular g'arb falsafasiga ham taalluqlidirlar.

Ko'pgina jamiyatlar falsafiy muammolarni ko'rib chiqishdi va boshqa jamiyatlar ishlari asosida o'z falsafiy an'analarni qurishdi. Masalan, Yaqin Sharq falsafasi G'arb falsafasi ta'siri ostida bo'ldi. Rus (ba'zilar buni G'arb falsafasiga taalluqli, deb ko'rishadi), Yahudiy, Islomiy, Afrika va ba'zi Lotin Amerikasi falsafiy an'analari G'arb falsafasidan ta'sirlanishdi; biroq, o'zlarining aslliklarini ham yo'qotishmadi.Bu an'analar orasidagi farqlar xush ko'rilgan tarixiy faylasuflar,

g‘oyalar, uslublar yoki tillar bilan aniqlanadi. Ularni bir-biriga tegishli metodlar bilan o‘rgansa bo‘ladi va ular orasida sezilarli umumiyliliklar bor. Ilk falsafiy ta’limotlar qad. Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo‘lgan, keyin G‘arb mamlakatlariga yoyilgan. Qad. Hindistondagi falsafiy maktablar 2 turga bulinib, biri vedalaraxm kelib chiqqan va ularga suyanuvchi maktablar (vedanta, yoga, vaysheshika, nyaya, sankxya), ikkinchisi vedalarni rad etuvchi maktablar (jaynizm, buddizm, lokoyata) xisoblanadi. Qadimgi Xitoydagi dastlabki falsafiy ta’limotlar miloddan avvalgi 7-asrda vujudga kelgan. U Qad. Xitoy yozma manbalarida uchrab, bu manbalarga “Qo‘shiqlar kitobi”, ‘Bahor va kuz“ kabi qadimgi yodgorliklar va Konfutsiynnng ‘Aforizm“larini, daosizmni kiritish mumkin. Markaziy Osiyodagi falsafiy qarashlar qad. turkiy yozuvlar, tangriga e’tiqod qilish tamoyillarida va zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Sharq xalqlarining tabiatning asosiy unsurlari yer, suv, havo va olovni e’zozlash haqidagi naturfalsafiy qarashlari va g‘oyalari Yaqin va O‘rtta Sharq mamlakatlariga keng yoyilib Qadimgi Misr, Bobil, Lidiya mamlakatlari xalklarining tafakkur tarziga singib ketgan. Yunonistonning ilk falsafiy maktabi — Milet maktabi ham o‘z g‘oyalarini Sharkdan olganligi tadqiqotchilarga ma’lum. Miloddan avvalgi 2—1-asrlarda Marv, Balx, Termiz, Sig‘noq, Samarkand, Buxoro zaminini o‘ziga qamrab olgan hududda kushonlar sultanati qaror topib, unda budda dini xukm suradi, uning falsafasi bu joyda yashovchi xalqning tafakkur tarziga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ammo Avesto g‘oyalari xalq ongidan butunlay chiqib ketmaydi. Milodiy 3-asrga kelib tenglik g‘oyalarini ilgari suruvchi moniylik ta’limoti paydo bo‘ldi. Bu ta’limot mazdakiylar harakatinnnt ma’naviy tayanchi bo‘lgan. Falsafa Xitoy tamadduniga, umuman Sharqiy Osiyoga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina buyuk falsafiy maktablar Bahor va Kuz Davri hamda Davlatlar Urushi Davrida paydo bo‘lib, Fikrning Yuz Maktabi nomi ostida tanildi. Ulardan eng ahamiyatlilari orasida Konfutsianizm, Taoizm, Mohizm va Legalizmlarni ko‘rsatsa bo‘ladi. Keyinchalik, Tang Sulolasi davrida, bu safga Buddizm ham qo‘schildi (shuni aytib o‘tish joizki, Sharq falsafasida din va falsafa orasida qat’iy farqlar yo‘q). G‘arb falsafasi kabi, Xitoy falsafasi ham keng qamrovlidir va falsafaning har bir sohasiga taalluqli maktablarga ega. Fors falsafasi tarixi Qadimgi Eron falsafiy an’analari va ularning hind-eron ildizlariga borib taqaladi. Fors falsafasi Zardusht ta’limotidan ta’sirlangan. Eron tarixidagi turli urushlar — Iskandar Zulqarnayn, arablar va mo‘g‘ullar istilolariturli madaniyatlar, dinlar aralashuvi va natijada turfa falsafiy maktablar paydo bo‘lishiga olib keldi. Bularga zardushtiylik va islom ta’limotlari, yunon falsafasi ta’siridagi oqimlar, manixeylik, mazdakiylik va hokazo kiradi. O‘rtta Osiyo falsafasi Zardushtiylik, keyinchalik esa Islom dirlari ta’sirida shakllangan. Muhim faylasuflardan biri — ibn Sino O‘rtta Osiyo va umuman Islom olamida mantiq va metafizikani shakllantirdi; bunda u Arastu va Aflatun ishlariga tayandi. Ibn Sino olamning vaqt o‘qida yaratilishini rad etadi; olam uning

yaratuvchisi emanatsiyasidir, deydi. Ibn Sinoning bu qarashlari islomiy deizm va pandeizmga yaqindir. Keyinchalik O‘rtta Osiyolik boshqa faylasuflar — Beruniy, Forobiy, G‘azzoliy, Navoiy, Bedil va hk — ibn Sino asos solgan islomiy metafizika doirasida fikrlashdi va bu oqimlardan ba’zilari Yevropagacha yetib bordi. Hind falsafasi (dini) VEDA bu din hozirgi davrda hinduizm deb ataladi lekin. VEDA 4 ga bo‘linadi bular rigveda - hudolarga madh, samaveda - kuy qo’shiq, yadjurveda - qurbanlik qo’shiqlari atxarveda - sehr va jodular. Veda dini hind halqlarida juda katta tabaqalanishga olib keldi. Keyinchalik buddizm paydo bo’ldi. Barcha hii=nd aholisi budizm diniga o’tishni boshlashgandan keyin veda dinidagilar o’z dinida katta o’zgartirish qilishadi va shu tariqa veda dini hinduizmga aylaadi Xitoy falsafasining o‘rtta asrlar davri (miloddan avvalgi 2-asr - milodiy 10-asr) Bu davr konfutsiylik , legalizm va daoizm o’rtasidagi qarama-qarshilik bilan tavsiflanadi . Oxir-oqibat, bu bahsda konfutsiylik davlat dini va axloqi sifatida ustunlik qiladi. Hozirgi adabiyotlarda falsafaning vujudga kelishini marksizmning sinfiylik tamoyillariga asoslanib, quzdorlik tuzumining shakllanishi bilan bog‘lab, uning tarixini uch ming yil deb hisoblanadi. Fikrimizcha, qadimgi asotirlardayoq falsafiy fikrlashlar, olam va undagi hodisalarga aql ko‘zi va tajriba mezoni bilan qarash unsurlari mavjuddir. SHu bilan birga falsafa tarixining rivojlanish bosqichlarini ijtimoiy taraqqiyotning u yoki bu davrlari bilan bog‘lab tushuntirish xam o‘zini oqlamaydi. CHunki bu davrlar turli mintaqalarda o‘ziga xos tarzda kechgan. Masalan, qadimgi Gretsiya va qadimgi Rumoda quzchilik iqtisodiy ishlab chiqarish usulini asosini tashkil qilib, bu davlatlarning rivojlanishida quzdorlik davrini tashkil qilgan. Agar Xitoy, O‘indiston xamda Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga nazar tashlasak bu erda sof quzdorlik tuzumi bo‘lmaganligini ko‘ramiz. Ko‘pgina davlatlarda quzchilik u yoki bu tarzda XIX asrning 2-chi yarmigacha davom etib, hech qachon ular iqtisodiyotning asosini tashkil qilmagan. Falsafa yo‘nalishi talabalari magistr bosqichi uchun milliy g‘oya va mafkuraning nazariy asoslarini chuqur o‘rgatish maqsadida “XII – XVIII asrlar Yaqin va O‘rtta sharq falsafasida gumanizm g‘oyalari” fani kiritilgan. Ushbu fan doirasida XII – XVIII asrlarda yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlarining insonparvarlik g‘oyalari, ularning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy g‘oyalalarini tahlil qilish asosida o‘rganiladi. Sharq falsafasidagi insonparvarlik g‘oyalaring o‘ziga xos xususiyatlarini va namoyon bo‘lish shakllarini (yo‘nalishlarini aniqlash orqali) Sharq mutafakkirlarining jahon falsafasi rivojiga qo‘shtan hissalariga e’tibor qaratiladi. Insonparvarlik g‘oyalaring bugungi kunda jamiyat ma’naviy yangilanishidagi o‘rni va mavqeiga, yoshlarning ma’naviy barkamollikka erishishlaridagi ahamiyatiga alohida urg‘u beriladi. SHuning uchun falsafaning rivojlanish bosqichlari turli mintaqalarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligiga e’tiborni qaratish kerak. O‘amma mintaqalar uchun falsafiy savol va javoblar tug‘ilishini universal bosqichi bo‘lib mifologik tafakkurning parchalanish davrini olish mumkin. Falsafiy fikr

rivojlanishiga yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri – bu, jahon tarixiy–falsafiy jarayonlarni turli–tumanligini toraytirib qo‘yadigan Evropotsentrizm qarashlaridir. Bu qarashlarni g‘ayriilmiyligini ko‘rsatish bilan SHarq bilan bog‘liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentrizm g‘oyalari ta’siriga tushmaslik kerak. Bu o‘rinda G‘arb va SHarq tarixiy–falsafiy jarayonlarini davrlarga ajratish tamoyillariga e’tibor qaratish bilan birga G‘arb va SHarq falsafasidagi an’analarning o‘zaro munosabatini ham tahlil qilish lozim. SHarqning o‘ziga xosligi, unga munosib bo‘lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo‘shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e’tirof etiladi, qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining SHarq sivilizatsiyasining quchog‘ida voyaga etgani va uning qadriyatlarini o‘zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta’sir ko‘rsatganini doimo esda tutish darkor. Falsafiy g‘oyalar muayyan ijtimoiy sharoitlar ta’sirida, ma’lum tarixiy–madaniy manbalar asosida shakllanadi. Odamlar million yillar davomida oila-oila, gala-gala bo‘lib yashashdan bundan 50-40 ming yillar muqaddam Kromonon tipidagi ajdodlarimiz jamiyat muxitida yashash va tarbiyalanish bosqichiga o‘tdilar. Natijada ibridoij hayotning murakkablashishi va kishilar ijtimoiy amaliyotining kengayishi ularni abstrakt fikrlashini rivojlantirdi, shu bilan birga asta-sekin ilmiy bilimlarni shakllantirdi. Falsafa fani o‘ziga xos yondoshishga ega. qadimdan faylasuflar borliq nima? Bor bo‘lishning o‘zi nima? degan savollarga javob qidirganlar. Falsafiy qarashlarning bu o‘ziga xos xususiyati qachon va nima uchun falsafa kelib chiqqan degan savolga javob berishga imkon tug‘diradi. Ijtimoiy hayot va ijtimoiy ongda, odatda, mifologiya yordamida hal qilib bo‘lmaydigan, ishontirishning ilojiy yo‘q jiddiy ziddiyatlar vujudga keladi. Bu o‘rinda shakllangan fikr bilan, haqiqatan qanday ekanligi xaqida bilimni farqlash ehtiyoji tug‘iladi. Bu farqlash falsafa bilan birga, vujudga-keladi. Falsafa avval boshdan kundalik ongni, urf–odatni, an’anaviy qadriyatlarni va axloq normalarini tanqid qiladi. Faylasuf hamma narsaga shubxa bilan qaraydi, buni u shu an’analarni kelib chiqish ildizini topish uchun qiladi. SHundan uning bor bo‘lishning o‘zi nima?, borliq nima? degan savolining mazmuni kelib chiqadi. Falsafaning vujudga kelishida qanday ijtimoiy vaziyat, madaniyatdagi qanday siljishlar ta’sir qiladi? degan savollar tug‘ilishi tabiiydir. qadimgi Gretsiyada falsafa inson hayotining ma’nosи, uning odatdagi tuzumi va tartibi xavf ostida qolgan vaqtida shakllandi. Falsafaning u yoki bu davrda shakllanishigina emas, balki taraqqiyoti ham chuqur ijtimoiy krizis (inqiroz)lar bilan bog‘liq bo‘lib, inson qiyalganda, eskicha yashay olmay qolganda, eski qadriyatlар o‘z ahamiyatini yo‘qotganda, endi nima qilish kerak? degan savol tug‘iladi. qadimgi Grek falsafasining kelib chiqishiga kelsak, u o‘sha joydagi quldorlik tizimining odatdagi mifologik–afsonaviy tasavvurlarini rad etib, yangi dunyoqarashni taqoza etardi. SHunday qilib, falsafiy qarashlar odatdagi turmush tarzi va odatdagi qadriyatlар inqirozi muxitida vujudga keladi. U eskicha

yondashuvlarga xos urf–odatlarni tanqid qilib, yangicha qarashlarni qaror toptirish, yangicha turmush tarzini shakllantirishga harakat qiladi. SHuning uchun falsafada nazariy va dunyoqarash muammolari uzviy bog‘liqdir.Qadimgi SHarq sivilizatsiyasining beshiklaridan bo‘lgan Misr va Bobilda eramizdan avvalgi to‘rt ming yillikning oxiri va uch ming yillikning boshlarida dastlabki falsafiy fikrlar, olam xaqida sodda ilmiy qarashlar, jumladan, astronomiya, kosmologiya, matematikaga oid qarashlar vujudga keldi. Bu erda shakllangan falsafiy qarashlarning eng asosiy xususiyati shundan iboratki, ularda, bir tomondan, sirli kuchlar, mo‘jizalarga ishonch, u kuchlarning tabiat va jamiyatga ko‘rsatadigan ta’sirini mutloqlashtirish xususiyati ustivor bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan afsona va rivoyatlar tarzida dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. Bu – o‘sha davrlardan qolgan yozma manba’larda, xususan, «Xo‘jayinning o‘z quli bilan hayotining mazmuni xaqida suhbati», «Arfisiy qo‘shig‘i». «o‘z xayotidan xafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z joni bilan suhbati», «Adapa» dostoni, «Etapa» haqidagi afsona, «Jafokash avliyo haqida doston» kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Bizning eramizgacha bo‘lgan 1 ming yillikning o‘rtalarida insoniyat tarixining taraqqiyotida qadimgi madaniyatning uch o‘chogida Xindiston, Xitoy, Gretsiyada deyarli bir vaqtning o‘zida falsafiy fikrlar vujudga keldi. Uning tug‘ilishi olamni mifologik tushunishdan bilimga tayanadigan dunyoqarashga o‘tishdek uzoq jarayonni boshidan kechirdi.

Xindiston bashariyat tarixida sivilizatsiya beshiklaridan biri hisoblanib, uning falsafasi o‘zining qadimiylari va boy tarixiga ega. qadimgi Xind falsafasini o‘rganishda «Ramayana», «Maxabxarota», «Kalila va Dimna», «Vedalar» kabi mashxur asarlar ilk manbalar bo‘lib xizmat qiladi. Xind madaniyati va falsafasining ana shu beba ho yodgorliklarining har birida aql-idrok, adolat, insof-diyonat, xalollik, poklik, mexnatsevarlik, milliy totuvlik, to‘gri so‘zlilik haqida va yomon illatlarga qarshi kurashish zarurligiga doir juda muxim falsafiy goyalar xikmatlar, rivoyatlar, maqollar shaklida bayon etilgan. Falsafiy qarashlarning kurtaklari Xind madaniyati eng qadimgi yozma yodgorliklari «Vedalar»da («Ved»lar – tabiatning iloxiy kuchlariga qaratilib aytiladigan gimnlar, duolar to‘plami) uchraydi. «Veda» kitobi Rigveda, Samaveda, YAshurveda va Atxarvededa deb ataladigan 4 katta bo‘limdan iborat.Ularda borliqning bosh manbai, moddiy ibtidosi deb xisoblangan suv, olov, xavo, yoruglik, tuproq hamda oziq-ovqat, fazo va vaqt xaqidagi, shuningdek olamning tuzilishi va uni boshqaruvchi qonunlar, inson bilimining manba’lari va turlari, insonning ijtimoiy majburiyatlarini kabi qator falsafiy masalalar yoritilgan. Ularda ta’kidlanishicha, tana jonning qobig‘i bo‘lib, jon esa – dunyoviy ruxning bir bo‘lagidir.Xind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashxur bo‘lgan manba’larda ham o‘z aksini topgan. «Upanishadalar» «sirli bilim» degan ma’noni anglatib, «Vedalar»ning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo‘lmay, balki turli vaqtida har xil

mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi turlicha falsafiy qarashlar maxsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o'rabi turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiatini, uning hayoti va ruxiyatining moxiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me'yorni haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtai nazardan bayon etilgan. Qadimgi Sharq falsafasining g'oyalari, ularning o'rta asr Yaqin va O'rta Sharq falsafasida rivojlantirilishini tahlil etish; XII – XVIII asrlardagi Markaziy Osiyo allomalarining tabiiy-ilmiy, falsafiy g'oyalardan tadqiqotchilik faoliyatida foydalanish; Sharq falsafasining insonparvarlik ta'limotini o'rganish natijalarini umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish; Sharq falsafasi taraqqiyoti natijalarini tizimlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish zarur.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda Sharq falsafasiga hind, xitoy, fors, yapon, koreys hamda O'rta Osiyo falsafasi kiradi. Bu ro'yxatga ba'zan Bobil va Arab falsafasi ham kiritiladi, Ilk falsafiy ta'limotlar qadimgi- Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo va Yunonistonda paydo bo'lgan, keyin G'arb mamlakatlariiga yoyilgan. Qadimgi Hindistondagi falsafiy maktablar 2 turga bo'linib, biri vedalar kelib chiqqan va ularga suyanuvchi maktablar (vedanta, yoga, vaysheshika, nyaya, sankhya), ikkinchisi vedalarni rad etuvchi maktablar (jaynizm, buddizm, lokoyata) hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati .

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T., "O'zbekiston", 2014–267 b.
2. Abdullayeva M.N., Abdurashidov M. va boshqalar. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. –T.: Sharq, 2012.–345 b.
3. Falsafa-Nazarov,Taxriri-2000.
4. Falsafa ensiklopedik lug'at. –T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy,nashriyoti-2015–344b.
5. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobi Toshkent "A.Qodiriy nomidagi Xalq,merosi"-2000 .
6. Jaxon falsafasi tarixidan lavhalar. 1-kitob T-2014.